

AVESTONING YANGI O'ZBEKISTONGA TUTGAN O'RNI

Gadayeva Mohigul Muxamedovna

mohigulgadayeva@mail.com

Osiyo xalqaro universiteti Xorijiy til va ijtimoiy fanlar kafedrasi assistenti.

Umedov Amirbek Umar o'g'li

amirbekk.007@icloud.com

Osiyo xalqaro universiteti Siyosatshunoslik yo'nalishi talabasi

“Avesto” ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganligidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor eta olmaydi.

Islom Karimov



Annotatsiya. “Avesto” – miloddan avvalgi VII–VI asrlarda Markaziy Osiyo hududida, Xorazm vohasida yaratilgan va “Avesto”, ya’ni “Hayot yo‘riqnomasi” deb nomlangan kitob; zardushtiylik dinini shakllantirishga asos bo‘lgan nazariy manbalarning umumiy nomi va bu dinning asosiy kitobi. “Avesto” Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi davrlardagi moddiy va ma’naviy hayoti, diniy qarashlari, olam va odam to‘g‘risidagi tasavvur, urf-odat va qadriyatlari haqida ma’lumot beradi. Asarda Miloddan avvalgi XIII asrdan to milodning IV asrigacha bo‘lgan davrdagi tarixiy voqealar aks etgan. O‘lis ota-bobolarimizning aql-zakovati, qalb qo‘ri mahsuli bo‘lmish bu noyob yodgorlikning zamon to‘fonlaridan, qancha-qancha og‘ir sinovlardan o‘tib, bizning davrimizgacha yetib kelganining o‘zi bugun biz yashab turgan ko‘hna o‘lkada qadimdan buyuk madaniyat mavjud bo‘lganidan guvohlik beradi. Unda ma’naviy yuksaklikka da’vat etish, odamlar o‘rtasida mehr-oqibat tuyg‘ularini mustahkamlashga oid fikrlar, ezgu g‘oyalar, ma’budlar sha’niga aytilgan madhiyalar, duolar ham o‘z ifodasini topgan. Dualizm, ruh va moddiy hayotning o‘zaro uyg‘unligini tan olishga asoslangan zardushtiylik diniga ko‘ra, butun olam yorug‘lik va zulmat, hayot va o‘lim, tana va jon, yaxshilik va yomonlik, erkinlik va tobelik singari qarama-qarshi hodisalar o‘rtasidagi azaliy va abadiy kurash asosiga qurilgan. Bu kurash yaxshilik xudosi Axura Mazda bilan yomonlik tangrisi Axriman orasidagi doimiy olishuv timsolida hech qachon to‘xtamaydi. Tarixchi Mas’udiyning

yoʻzishicha, podsho Doro ibn Doro xazinasida “Avesto”ning 12 ming oltin taxtaga, Balxiyning “Forsnoma” kitobi va Abu Rayhon Beruniy asarlarida keltirilgan maʼlumotlarga koʻra esa, 12 mingta mol terisiga tillo suvida yozilgan 32 ta kitobdan iborat nusxasi boʻlgan. Makedoniyalik Aleksandr miloddan avvalgi 334–329-yillarda Markaziy Osiyoni zabt etgan davrda “Avesto”ning koʻpgina sahifalari yoqib yuborilgan. Uning tibbiyot, falakiyot, falsafa va adabiyotga doir boʻlimlari esa yunon tiliga tarjima qilingan.

Kalit soʻzlar. Dualizm, Axura Mazda, Anxramaynu, Axuramazdo, Sanskrit, arshakiylar, sivilizatsiya, “Zand Avesto” Govamard, Qayumars, “Hayot yoʻriqnomasi”.

KIRISH. Avesto uzoq zamonlarda bizning ona zaminimizda, aniqrogʻi Xorazmda vujudga kelgan. U ayni vaqtda Oʻrta Osiyo, Afgʻoniston, Eron va Ozarbayjon xalqlarining birinchi yozma yodgorligidir. Avestoda anashu xalqlarning qadimgi davrdagi iqtisodiy-ijtimoiy hayoti, diniy tasavvurlari, urf-odatlar, tabiat va jamiyat haqidagi bilim va qarashlari bayon etilgan. Avesto maxsus yozuvda yozilgan. Bu yozuv Sanskrit deb atalgan yozuvga yaqin. Kitob oʻsha zamonlardayoq boshqa tillarga tarjima qilingan. Avestoning asl nusxasi muqaddas yozuv sifatida zardushtiy ruhoniylari qoʻlida saqlangan. Kitobda keltirilgan maʼlumotlarning eng qadimgi qismlari miloddan avvalgi 2-ming yillik oxiri, 1-ming yillik boshiga oid. Avesto tarkibiga turli diniy urf-odatlar bayoni, axloqiy, huquqiy qonun-qoidalar va boshqalar qoʻshilib borgan. Avestodagi koʻp maʼlumotlar asosan ogʻzakitarzda avloddan-avlodga oʻtib kelgan. Dastlabki yozma nusxasi esa 12 ming mol terisiga yozilgan deb rivoyat qilinadi. U axamoniylar sulolasining poytaxti Sheroz yaqinidagi Taxti Jamshidda saqlangan. Makedoniyalik Iskandar Eronni zabt etganda bu nusxa kuydirib yuborilgan. Hozir fanda maʼlum boʻlgan Avesto milodiy 6-asrda Sosoniylar shohi Husrav I Anushirvon davri (531-579) da yozib olingan. 7-asrda arablar Sosoniylarni magʻlubiyatga uchratgach, zardushtiy ruhoniylarning bir qismi Hindistonga oʻtib ketgan. Ularning avlodlari hozirgi Avestoning asl nusxasini saqlab kelmoqda. Bizgacha yetib kelgan Avesto 27 jildidan iborat boʻlib, ular asarning yettidan bir qismi xolos. Avesto yana shu jihati bilan qimmatlik, unda ilk falsafiy taʼlimotlar bilan tanishasiz. Bu taʼlimotga koʻra, olam ikki qarama-qarshi kuch, yaʼni yorugʻlik bilan zulmatning, yaxshilik bilan yomonlikning toʻxtovsiz kurashidan iborat. Yaxshilik va ezgulik xudosi Ahuramazdo yer, oʻsimlik va boshqa hamma tabiiy boyliklarni yaratgan. Yomonlik va yovuzlik timsoli Anxramaynu Ahuramazdoga qarshi toʻxtovsiz kurashadi, ammo uni yengishga ojizlik qiladi. Bu kurash abadiy davom etadi. Yaxshilikni ifodalovchi kuchlar osmonda, yomonlikni ifodalovchi kuchlar yer ostida joylashgan, yer sahni esa kurash maydonidir. Hayotdagi turli oʻzgarishlar qaysi kuchning gʻalaba qilishiga bogʻliq. Inson ham tana va ruhning, axloq esa yaxshi va

yomon xulqning o'zaro kurashidan iborat. Avesto ta'limotiga ko'ra, birinchi inson Govamard (ho'kiz-odam; forsha Qayumars). Undan barcha kishilar tarqalgan. Birinchi shoh Yima davri oltin davr hisoblangan, chunki unda o'lim bo'lmagan, Axuramazdo doimiy bahor yaratgan. Kishilar bekam-u ko'st, baxtiyor yashagan. 900 yil o'tgach shoh Yima g'ururga berilib, man etilgan sigir go'shtini yeydi va yovuzlik ramzi Anxramaynu hukmidagi kuchlar bosh ko'taradi. Olamni muzlik qoplaydi. Yima Axuramazdo amri bilan odamlar va hayvonlarni sovuqdan saqlab qolish uchun qo'rg'on qurib, unga har bir jonzotdan bir juftini joylashtirgan. Insoniyat tarixining ilk oltin davri tugagach, Hayr bilan Sharr (yaxshilik va yomonlik) o'rtasidagi kurash davribo'lgan ikkinchi davr boshlangan. Uchinchi davrda Axuramazdo g'alaba qilib, ezgulik saltanati barqaror bo'ladi, adolatli jamiyat yuzaga keladi. Ungacha kishilar tinch mehnat, oilaviy turmush bilan mashg'ul bo'lishlari kerak. Avesto va zardushtiylik dini ta'limoti keyingi barcha dinlarga ta'sir ko'rsatdi. Avesto – bizning qadim tarixga ega o'lkamizda buyuk davlat, buyuk ma'naviyat bo'lganligidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi YUNESKO bosh konferensiyasining 1999-yil noyabr oyida bo'lib o'tgan sessiyasi qaroridan kelib chiqib, O'zbekistonda 2001-yilning oktabr oyida Avesto yaratilganligining 2700 yilligini nishonlash haqida qaror qabul qildi.

MAVZUNING DOLZARBLIGI. Sosoniylar sulolasi hukmronlik qilgan milodiy I asrda zardushtiylik diniga bo'lgan qiziqish kuchaygan hamda Parfiyadagi arshakiylar hukmdori Vologes tomonidan “Avesto”ning turli manbalarda saqlanib qolgan yozma va og'zaki namunalari qayta to'plangan. Podsho Ardasher (226–242) va uning o'g'li Shopur (242–272) hukmronlik qilgan davrda zardushtiylik yana davlat diniga aylangan va “Avesto” alohida kitob holida tiklangan. Shoh Xusrav Anushirvon (531–579) hatto ruhoniylar ham tushunishi qiyin bo'lgan “Avesto”ni, avestoyi tildan zamonasining adabiy tili hisoblangan pahlaviy tiliga tarjima qildirgan. Shu davrda kitobning asosiy matniga sharhlar yozilib, izohlar berilgan. Sosoniylar hukmdorlari tomonidan qayta tiklangan bu kitob “Zand Avesto” deb atalgan. “Zand” bayon qilish va izohlash degani. “Zand Avesto” zardushtiylik dini ta'limotini to'liq aks ettirmaydi. Chunki, bu to'plamga “Avesto”ning faqat kishilarning yodida qolgan 12 nasxi og'zaki qo'shimchalar asosida kiritilgan bo'lib, kitobning beshdan uch qismi – 18 nasxining matni ma'lum bo'lmagani uchun kiritilmay qolgan. Ikkinchidan, kitobni qayta tiklash jarayonida astronomiya, tibbiyot, jug'rofiya, etika kabi fanlarga oid asarlar ham uning matniga qo'shib yuborilgani haqida taxminlar bor. Ayni paytda “Avesto” asl nusxasining hajmi katta bo'lgani bois, dindorlarning har kuni foydalanishi uchun ayrim qiyinchiliklar tug'dirgan. Bu holatga barham berish uchun kitob qisqartirilib, uning “Kichik Avesto” shakli yaratilgan. Unga asosan tanlab olingan duo va madhiyalar kiritilgan. VII–VIII asrlarda O'rta Osiyoning arablar tomonidan istilo qilinishi va islomning keng tarqalishi bilan zardushtiylik va uning asosiy kitobi

bo‘lmish “Avesto”ni o‘rganish taqiqlangan. Shu sababli uning aksariyat sahifalari yo‘qolib ketgan va to‘liq matni hozirga qadar topilmagan. “Avesto” bitiklari qadimgi yunonlar, rimliklar, yahudiylar, suriyaliklar va boshqa xalqlar tomonidan chuqur o‘rganilib, undagi eng qimmatli bilimlar, fikr va g‘oyalar, amaliy tajribalar o‘zlashtirib olingan. Ayniqsa, “Avesto” yunon falsafasiga hal qiluvchi ta’sir o‘tkazgan. “Avesto” bo‘yicha asrlar davomida dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida chuqur ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan va bu ishlar bugungi kunga qadar davom etmoqda. 1777-yilda nemis olimi Klenker “Zand Avesto”ni nemis tiliga o‘girib, Riga shahrida chop ettirgan bo‘lsa, Daniyalik tadqiqotchi R.Rask XIX asrning birinchi choragida “Avesto”dan nemis tiliga bir qator tarjimalarni amalga oshirib, 1826-yilda Kopengagen shahrida nashr qildiradi. Yevropalik olim E.Byurnufning 1833-yilda “Avesto”ning “Yasna” qismiga yozgan sharhlari ushbu kitobni “Avesto”da yangitdan tushunish va kashf etishda muhim qadam bo‘ldi. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Rossiyada ham “Avesto”ga e’tibor kuchayadi. Rus sharqshunosi K.Kossovich 1861-yili birinchilardan bo‘lib, “Zand Avesto”dan 4 bobini tarjima qiladi. Yana bir rus tadqiqotchisi K.Zaleman esa qadimgi fors adabiyoti haqidagi ocherklarida (1881) “Avesto” haqida ma’lumot beradi. S.Kamenskiy “Avesto” yashtlaridan yettitasini rus tiliga tarjima qilib, 1900-yili izohli lug‘ati bilan chop ettiradi. “Avesto”ning keyingi davrdagi tadqiqotchilari haqida fikr yuritganda, eronlik Ibrohim Puri Dovudning nomi alohida tilga olinadi. U 1925 – 1936-yillarda Hindistondagi pors qavmi orasida istiqomat qilib, “Avesto”ning tilini mukammal o‘rgandi, kitob haqidagi barcha materiallarni jamlab, to‘qqiz jildidan iborat “Avesto” kitobini chop ettirdi. Shu tariqa uch ming yillar oldin yo‘qotilgan “Avesto” sahifalarini tiklab, uni hozirgi zamon fors tiliga o‘girdi. Sobiq sovet davrida “Avesto”ning ilk vatani bo‘lmish O‘zbekistonda bu kitobni sistemali ravishda o‘rganishning imkoni bo‘lmadi. Qadimgi ajdodlarimizning ezgu g‘oyalari, milliy davlatchilik an‘analari, turmush tarzi va mentalitetini aks ettirgan bu kitob faqat mustaqillik yillarida o‘zining haqiqiy qadr-qimmatini topdi. Birinchi Prezident Islom Karimov rahbarligida amalga oshirilgan ma’naviy merosimizni tiklash, har tomonlama keng o‘rganish va targ‘ib etish borasidagi keng ko‘lamli ishlar doirasida “Avesto” kitobi ham yangidan xalqimizning ma’naviy mulkiga aylantirildi. Kitobning xalqimiz va milliy davlatchiligimiz tarixi, umumbashariy sivilizatsiya rivojida ulkan ahamiyatini hisobga olgan holda 2001-yili “Avesto” yaratilganining 2700-yilligi yurtimizda xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Shu munosabat bilan kitobning to‘liq matni o‘zbek tiliga tarjima qilinib, chop etildi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek halqining dehqonchilik an‘analari qadimiy tarixga ega bo‘lib bundan 3000 yil mukaddam O‘rta Osiyo zaminida dehqonchilik gullab-yashnagan va ajdodlarning asosiy mashg‘ulotlaridan biri bo‘lgan. “Avesto”da ta’riflangan va targ‘ib etilgan eng ulug‘ kasb dexqonchilikka oid urf-odat va marosimlar o‘zining xayotiyliigi va halqchilligi bilan alohida diqqatga

sazovordir. Ularda ijtimoiy tabaqaviy cheklanish alomatlari yo'q bo'lib tabiiy ehtiyojlar zaminida paydo bo'lgan va umumxalq manfaatlariga xizmat qilgan. Bu urf-odat va marosimlar tabiat bilan o'zviy bog'liq mehnat jarayoni hamda turmushning muhim voqealariga bag'ishlab nishonlangan va xalqning orzu-umidlarini ifoda etgan. Avestoning hozirgi davr kishilari uchun ahamiyati shundaki, unda odamlar doim pokiza yurishga, badanni toza tutishga yomon kirdikorlar qilmaslikka; har qanday yovuz niyat va haqoratli asabbuzar so'zlarni aytmaslikka, ayollarni, jumladan qizlarni sevishga hamma sohada mo'tadil (optimal) bo'lishga da'vat etuvchi qoida va o'gitlar bayon etilgan. Avestoda odamlar halol mehnat qilishga oz qo'li hunari bilan moddiy ne'matni yaratishga, tayyorga ayyor, o'roqda yo'q, mashoqda yo'q xirmonda hozir, boqimanda, tekinxo'r bo'lmaslikka, bularga yo'l qo'ymay, binoanan yashashga da'vat etilgan. Bu da'vatlarni hozir ham foydasi katta. Avestoda diniy ko'rsatmalar haqidagi g'oyalar bilan birga real, dunyoviy hozir ham foydali, nasihat, tavsiya, cheklash, ta'qiqlash, rag'batlantirishga doir o'git va da'vatlar ko'p bo'lgan. Xulosa shuki, zardushtiylikning o'zidan keyingi barcha dinlarga salbiy ta'siridan ko'ra ijobiy ta'siri ustun bo'lgan. Deyarli barcha dinlarga xos xususiyat bo'lgan insonlarni yetuklikka, ma'naviyati boy, axloq-odoblilik bo'lib tarbiyalashga intilish zardushtiylik dinining ham asosini tashkil qiladi. Bu ustunlik musulmonlar hayoti va faoliyatida ayniqsa e'tiborga loyiqdir.

ADABIYOTLAR ROYXATI:

- 1.Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., Sharq, 1998.
- 2.Sulaymonova F. Sharq va G'arb.-Toshkent. Fan, 1997.
- 3.Avesto. O'zbekcha tarjima (Asqar Mahkam tarj.) T.:2001.
4. “Avesto”dan (tarj. M. Isoqov) O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 1999. №2-
- 5.Abu Rayhon Beruniy. Al-osorul-boqiya an-al qarunul-holiya.T.: 1969
6. H. Hamidov. “Avesto” fayzlari. – T.: 2001
7. N.Rahmonov. “Avesto”ning paydo bo'lishi. “O'zbekiston ovozi” 2001, 26.
8. N. Rahmonov. “Avesto”: Zamin, vatan demakdir. – “O'zbekiston ovozi” 2001, 25 sentyabr.
9. www.e-tarix.uz
10. www.ziyonet.uz